



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTORINING
BUYRUG‘I**

2022-yil “10” oktabr

№ 323

Toshkent sh.

II Xalqaro talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasini o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-sentyabrdagi “Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-6309-sonli Farmoni va 2019-yil 6-maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4310-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yanvardagi “Ilmiy–innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 24-sonli qarori hamda 2022-yil 7-martdagi 101-F-sonli farmoyishida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101-F-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan joriy yilda oliy ta’lim muassasalarida xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasida belgilangan II Xalqaro talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasi (keyingi o‘rinlarda – Xalqaro talabalar konferensiyasi) 2022-yilning 14 oktabrda Toshkent tibbiyot akademiyasida (keyingi o‘rinlarda-TTA) o‘tkazilsin.

2. Xorijiy mamlakatlarning yetakchi tashkilotlari bilan TTA o‘rtasida imzolangan memorandumlar doirasida ilmiy - fan sohasida o‘rnatilgan samarali xalqaro aloqalarni yanada mustahkamlash va o‘zaro tajriba almashish maqsadida Xalqaro talabalar konferensiyasi Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) va Koreya xalqaro sog‘liqni saqlash jamg‘armasi (KOFIH) bilan hamkorlikda o‘tkazilsin.

3. Xalqaro talabalar konferensiyasiga tayyorgarlik ko‘rish, tashkillashtirish va uni o‘tkazish uchun mas’ul etib ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i F.B.Abdumalikova va Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya kafedrasida dotsenti N.T.Yodgorovalar belgilansin.

4. Quyidagilar:

Xalqaro talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasida ilmiy ma’ruzalar tanlovini o‘tkazish tartibi (keyingi o‘rinlarda-Tartib) 1-ilovaga muvofiq, Xalqaro talabalar konferensiyasi dasturi 2-ilovaga muvofiq, Xalqaro talabalar konferensiyasini o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy komissiya tarkibi 3-ilovaga muvofiq, Xalqaro talabalar konferensiyasi hakamlar hay’ati a’zolari tarkibi 4-ilovaga muvofiq, Xalqaro talabalar konferensiyasini o‘tkazish

Kiritildi:

Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot
faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i



F.B.Abdumalikova

Kelishildi:

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



Sh.A.Boymuradov

Ilmiy ishlar va innovasiyalar
bo'yicha prorektor



F.L.Azizova

Bosh buxgalter



B.I.Alijanova

Reja-moliya bo'limi boshlig'i




O.U.G' aipov

Raqamli ta'lim texnologiyalari
markazi boshlig'i



A.K.Musaxonov

Yuriskonsult



S.M.Yusupova

bo'yicha mas'ul komissiyaga tashkiliy ko'mak ko'rsatish bo'yicha jalb qilinayotgan TTA talabalari ro'yhati 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, iqtidorli talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova, barcha fakultet dekanlari va kafedra mudirlariga:

TTAda faoliyat yuritayotgan barcha professor-o'qituvchilari va bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalar mazkur buyruq bilan tanishtirilsin;

2022-yil 14 oktabrda o'tkaziladigan Xalqaro talabalar konferensiyasida ishtirok etadigan talabalarga anjuman o'tkazilish sanasi uchun o'rtacha reyting ballari qo'yib berilishi ta'minlansin;

mazkur buyruq ilovalarida keltirilgan ro'yxatlar bo'yicha Xalqaro talabalar konferensiyasida ishtirok etishi ko'rsatilgan TTA xodimlari va talabalarining ishtiroki ta'minlansin.

6. Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i A.K.Musaxonov tomonidan Xalqaro talabalar konferensiyasini ochilish marosimi va konferensiya bosqichlarini o'tkazish jarayonida dasturiy ta'minot to'liq ta'minlab borilsin.

7. Bosh buxgalter B.I.Alijanova va Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'aipovlar tomonidan Xalqaro talabalar konferensiyasi bosqichlarini holis, shaffof va sifatli o'tkazish uchun videoroliklar, bannerlar, diplom va sertifikatlar tayyorlash hamda esdalik sovg'alar va gullarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha sarf-harajatlar TTAning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshirilishini ta'minlansin.

8. Matbuot kotibi G.T.Mirzayeva iqtidorli talabalar bilan ishlashning muhim tarbiyaviy ahamiyatini e'tiborga olib, Xalqaro talabalar konferensiyasida g'olib bo'lgan talabalar to'g'risidagi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari hamda TTAning veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarida yoritilsin.

9. Iqtidorli talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikovaga:

Xalqaro talabalar konferensiyasi yakunlanganidan so'ng unga oid ma'lumotlar 5 (besh) kun muddat ichida Sog'liqni saqlash vazirligining fan va ta'lim boshqarmasiga hisobot topshirilsin;

Xalqaro talabalar konferensiyasi yakunlanganidan so'ng unda g'olib bo'lgan TTAning talabalari mazkur buyruq Tartibida belgilangan tartib va miqdorda rag'batlantirish to'g'risida buyruq loyihasi TTA rektoriga taqdim etilishi ta'minlansin.

10. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan TTA rektorining 2022-yil 4-apreldagi 112-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

11. Mazkur buyruqning ijrosini ta'minlash Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova zimmasiga yuklatilsin.

Rektor



A.K.Shadmanov

Kiritildi:

Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot
faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i



F.B.Abdumalikova

Kelishildi:

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



Sh.A.Boymuradov

Ilmiy ishlar va innovasiyalar
bo'yicha prorektor



F.L.Azizova

Bosh buxgalter



B.I.Alijanova

Reja-moliya bo'limi boshlig'i



O.U.G' aipov

Raqamli ta'lim texnologiyalari
markazi boshlig'i



A.K.Musaxonov

Yuriskonsult



S.M.Yusupova

Xalqaro talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasida ilmiy ma'ruzalar tanlovini o'tkazish tartibi

I-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Tartib Toshkent tibbiyot akademiyasida (keyingi o'rinlarda – TTA) oliy ta'lim muassasalari (keyingi o'rinlarda – OTM) talabalari ishtirokidagi II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi (keyingi o'rinlarda – Xalqaro talabalar konferensiyasi) maqsad va vazifalari, uni tashkil etish, o'tkazish hamda xalqaro talabalar konferensiyasida qatnashish va g'oliblarni aniqlash tartibini belgilaydi.

1.2. Xalqaro talabalar konferensiyasini o'tkazishga ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i, xalqaro talabalar konferensiyasining tashkiliy qo'mita, mas'ul komissiya, xalqaro bo'lim va ta'lim muassasalarida elektron ta'lim va axborot resurslar markazi mas'ul hisoblanadi.

1.3. Xalqaro talabalar konferensiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 7 martdagi "2022-yilda xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar dasturi to'g'risida"gi 101f-sonli farmoyishida belgilangan talablarni inobatga olib TTA va barcha oliy ta'lim muassasalari talabalarini yosh tadqiqotchilar sifatida o'z qobiliyatlarini namoyon etish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularning innovatsion potentsiali, liderlik xususiyatlarini shakllantirish va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishga keng imkoniyatlar yaratishga yo'naltirilgan. Xalqaro talabalar konferensiyasi o'tkazishdan asosiy maqsad talabalarni ta'lim va ilm-fan integratsiyasiga jalb etish orqali jamiyatimizni tibbiyot ilmi sohasini rivojlanishini ta'minlashda iqtidorli talaba-yoshlarning faol ishtirok etishini rag'batlantirishdan iborat.

1.4. TTA buyrug'i asosida xalqaro talabalar konferensiyasini tashkil etish va uni o'tkazish bo'yicha TTA boshqaruv xodimlari va professor-o'qituvchilaridan iborat tashkiliy komissiya (keyingi o'rinlarda – tashkiliy komissiya) tarkibi tasdiqlanadi.

1.5. Tashkiliy komissiya tarkibi quyidagilardan iborat bo'ladi:

TTA rektori – tashkiliy komissiya raisi;

TTA Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor – tashkiliy komissiya rais o'rinbosari;

TTA Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i – tashkiliy komissiya mas'ul kotibi.

O'quv ishlar bo'yicha prorektor – tashkiliy komissiya a'zosi;

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor – tashkiliy komissiya a'zosi;

TTA "O'zbekiston yoshlar ittifoqi" boshlang'ich tashkiloti vakili – tashkiliy komissiya a'zosi;

TTA fakultetlari dekanlari – tashkiliy komissiya a'zosi;

TTA kafedra mudirlari – tashkiliy komissiya a'zosi.

1.6. Tashkiliy komissiya xalqaro talabalar konferensiyasi uchun zaruriy vosita, buyumlar, texnik va axborot ta'minotini tashkil etish, xalqaro talabalar konferensiyasining g'oliblari va ishtirokchilarini rag'batlantirish vazifalarini bajaradi.

1.7. Xalqaro talabalar konferensiyasi tashkilotchilari va ishtirokchilari uchun yagona axborot portalini yaratish, uning uzluksiz ishlashini ta'minlash TTA Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi tomonidan amalga oshiriladi.

1.8. Xalqaro talabalar konferensiyasida O'zbekiston Respublikasi hamda xorijiy OTMning bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ilmiy jamiyati (keyingi o'rinlarda – TIJ) saralash bosqichida g'olib bo'lgan barcha iqtidorli talabalar ishtirok etishlari mumkin.

1.9. Mazkur Tartibda belgilangan fanlardan iborat seksiyalar bo'yicha o'tkaziladigan xalqaro talabalar konferensiyasida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarining ilmiy ma'ruzalari muhokamasi tarzida o'tkaziladi.

1.10. Xalqaro talabalar konferensiyasini adolatli o'tkazilishini nazorat qilish hamda natijalarni tahlil etish Tashkiliy komissiya tomonidan TTA Raqamli ta'lim texnologiyalari markazining tahliliy ma'lumotlariga asosan amalga oshiriladi.

II-bob. Xalqaro talabalar konferensiyasi bosqichlari o'tkaziladigan fanlar kesimidagi turlari

2.1. Xalqaro talabalar konferensiyasining 1- kafedra bosqichi o'tkaziladigan fanlar hamda 2-kafedralararo bosqichi va 3-yakuniy bosqichi o'tkaziladigan seksiyalar bo'yicha taqsimlangan fanlar majmuasi mas'ul komissiya tomonidan ekspertizadan o'tkaziladi va belgilangan tartibda o'zgartirish kiritadi.

2.2. Xalqaro talabalar konferensiyasining 1-kafedra bosqichi joriy yilning yanvar oyida TTA xar bir kafedrasida tegishli fanlar bo'yicha o'tkaziladi. Kafedra bosqichida bitta talaba 2 tadan ortiq bo'lmagan fanlarda ilmiy ma'ruzalar tanlovida ishtirok etishi mumkin. 1-saralash bosqichda sovrinli 1- va 2-o'rinni egallagan talabalar 2-kafedralararo bosqich tanlovida qatnashish imkoniga ega bo'ladi.

2.3. Xalqaro talabalar konferensiyasining 2-kafedralararo bosqichi joriy yilning aprel oyida tegishli fanlar majmuasidan iborat seksiyalar bo'yicha o'tkaziladi.

2.3.1. 2-Kafedralararo bosqichda bitta talaba 1 tadan ortiq bo'lmagan fanlar bo'yicha ilmiy ma'ruzalar tanlovida ishtirok etishi mumkin.

2.3.2. 2-Kafedralararo bosqich saralash tanlovida ishtirokchi talaba tomonidan o'quv yili davomida erishgan ilmiy yutuklari jamlangan portfolio tayerlanadi va hay'at a'zolariga taqdim etiladi.

2.3.3. 2 bosqichda sovrinli eng sara ma'ruzalari bilan 1, 2 va 3- o'rinlarni egallagan TTA talabalar yakuniy bosqichda xalqaro talabalar konferensiyasida ishtirok etish imkoniga ega bo'ladi.

2.4. Xalqaro talabalar konferensiyasi yakuniy bosqichi o'tkaziladigan fanlar bo'yicha seksiyalar shakllantirilib, TTA 2-kafedralararo bosqichida eng sara ma'ruzalar tanlab olingandan so'ng xalqaro talabalar konferensiyasini o'tkazish to'g'risida TTA buyrug'i qabul qilinadi va bu to'g'risida ommaviy axborot vositalari, TTAning veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida e'lon beriladi.

2.4.1 Xalqaro talabalar konferensiyasi TTA talabalari bilan bir qatorda respublika va xorijiy tibbiyot oliy ta'lim muassasalari (keyingi o'rinlarda – OTM) talabalari ishtirok etishi mumkin. Har bir xorijiy ishtirokchi xalqaro talabalar konferensiyasida faqat bitta seksiyada qatnashishi mumkin. Har bir seksiyada o'z o'quv yurtida o'tkazilgan saralash

bosqichida g'olib bo'lgan bitta talaba tegishli kafedra va OTM tavsiyasi bilan ishtirok etishi mumkin.

2.4.2. Xalqaro talabalar konferensiyasi mazkur Tartibning 1-ilovasida keltirilgan yo'nalishlar (seksiyalar) bo'yicha ish olib boriladi.

2.5. Tashkiliy komissiyaning a'zolari bo'lgan kafedra mudirlari o'zlari mas'ullik qilayotgan mazkur Tartibning 2.4.2.-bandida belgilangan seksiyalar bo'yicha hakamlar hay'at raisi sifatida seksiyaga tegishli fanlarning kafedra mudirlaridan tashkil topgan hakamlar hay'at a'zolari ro'yxatini tasdiqlash va konferensiyada respublika va xorijiy ishtirokchilar orasida 1, 2, 3- o'rin g'oliblarini adolatli va shaffof tarzda aniqlash bo'yicha mas'uldirlar.

2.6. Tashkiliy komissiya xalqaro talabalar konferensiyasi seksiyalari bo'yicha dastur, baholash mezonlari hamda mazkur Tartibni elektron pochta orqali O'zbekiston va xorijiy tibbiyot OTMlarga yuboradi.

2.7. Xalqaro talabalar konferensiyasi o'zbek, rus va ingliz tillarida o'tkaziladi.

III-bob. Xalqaro talabalar konferensiyasini o'tkazish tartibi va baholash mezonlari

3.1 Xalqaro talabalar konferensiyasi joriy yilning may oyida o'tkaziladi.

3.2. Xalqaro talabalar konferensiyasining yuqori saviyada o'tkazilishida shaxsan OTM rektori mas'ul hisoblanadi.

3.3. Xalqaro talabalar konferensiyasida ishtirok etish istagini bildirgan talabalar uni o'tkazish kundan 10 kun oldin TTAning rasmiy veb saytida joylashtirilgan xalqaro talabalar konferensiyasining axborot xatida namunasi keltirilgan ro'yxatga olish va ishtirok shakli namunasi to'ldirilib, tegishli seksiya mas'ulining elektron pochta manziliga yuborilishi lozim.

3.4. Talabalar o'zlari tomonidan tanlagan fanlar bo'yicha xalqaro talabalar konferensiyasini o'tkazish sanasi va vaqti bo'yicha tashkilotchining elektron platformasiga kirishlari lozim bo'ladi.

3.5. Xalqaro talabalar konferensiyasi ochilish va taqdirlash marosimini o'tkazish jarayonlari YouTube platformasida to'g'ridan to'g'ri onlayn translyatsiya tarzida namoyish etiladi.

3.6. Xalqaro talabalar konferensiyasi ochilish marosimidan keyin hakamlar hay'ati a'zolari va ishtirokchilar tegishli seksiyalar o'tkaziladigan ma'ruza zallariga o'tishadi.

3.7. Seksiyalar bo'yicha hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan ishtirokchi talabalarni ilmiy ma'ruza bilan chiqishlari mazkur Tartib bilan tasdiqlangan baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi. Ishtirokchi talabalar ilmiy ma'ruzalari tanlovining baholash mezonlari mazkur Tartibning 2- ilovasida keltirilgan.

3.8. Xalqaro talabalar konferensiyasida ishtirok etish istagini bildirgan barcha tibbiyot OTMlari yuqoridagi masalalar yuzasidan talabalar va ularning ilmiy rahbarlariga shart-sharoitlar yaratib berishlari zarur.

3.9. Xalqaro talabalar konferensiyasi ishtirokchilarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyati va qurilmalaridagi texnik nosozliklar bo'yicha shikoyat va arizalar ko'rib chiqilmaydi.

3.10. Xalqaro talabalar konferensiyasini o'tkazish jarayoni va natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalari, TTA rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarida yoritiladi.

IV-bob. Xalqaro talabalar konferensiyasi g'oliblarini aniqlash

4.1. Xalqaro talabalar konferensiyasi g'oliblari hakamlar hay'ati raisi va a'zolari tomonidan shaxsiy baholash varaqasida qayd etilgan umumiy ballar jamlanmasiga ko'ra Tartibning 2-ilovasida berilgan shaxsiy varaqada kiritilgan va seksiya bo'yicha masu'llar tomonidan tasdiqlangan yozuvlarga asosan aniqlanadi.

4.2. Barcha talabalar o'rtasida o'rinlarni taqsimlash xalqaro talabalar konferensiyasida ishtirok etayotgan ilmiy ma'ruzaning taqdimoti ko'rinishi, ilmiy-tadqiqot mavzusining dolzarbligi, ma'ruza mazmuni, talabaning ilmiy tadqiqot ishida ishtiroki ulushi, ma'ruza qilish ko'nikmasi, savollarga aniq va lo'nda javob berishi va ma'ruza reglamentiga rioya qilishi bo'yicha to'plangan umumiy ballar bo'yicha har bir seksiya tegishli sovrinli 1, 2, 3- o'rinlar belgilanadi

4.3. Har bir seksiya bo'yicha agarda 1, 2, 3- o'rinlarga nomzodlar tomonidan to'plangan ballar teng bo'lib qolganda 1-o'rin uchun 2 ta, 2-o'rin uchun 2 ta, 3 o'rin uchun 3 tadan g'olib belgilanishi mumkin..

4.4. Xalqaro talabalar konferensiyasida faol ishtirok etgan talabalarga tegishli seksiyalar bo'yicha "Eng yaxshi maruzachi", "Eng yaxshi ilmiy-tadqiqot ishi", "Eng yaxshi orator", "Eng dolzarb ilmiy- tadqiqot ishi", "Ilk muvaffaqiyatli ma'ruza" nominatsiyalari bo'yicha g'oliblarga diplom taqdim etiladi.

4.4. Xalqaro talabalar konferensiyasida ishtirok etgan barcha talabalarga sertifikatlar beriladi.

V-bob. Xalqaro talabalar konferensiyasi g'oliblari, ularning rahbarlari va ishtirok etgan barcha talabalarni taqdirlash hamda rag'batlantirish.

5.1. Xalqaro talabalar konferensiyasi yakunlari bo'yicha TTAning tegishli buyrug'i asosida quyidagilar taqdirlanadi hamda rag'batlantiriladi:

- Xalqaro talabalar konferensiyasining tegishli seksiyasida g'olib bo'lgan talabalar TTAning I, II, III darajali diplomlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

- Xalqaro talabalar konferensiyasida g'olib bo'lgan TTA talabalari diplom, esdalik sovg'alar bilan taqdirlanadi va TTAning Ilmiy kengashi qarori bilan tasdiqlangan mezonlar bo'yicha talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi hisobidan rag'batlantiriladi.

- Xalqaro talabalar konferensiyasida g'olib bo'lgan TTA talabalarining ilmiy rahbarlari TTAning ilmiy kengashi qarori bilan tasdiqlangan mezonlar bo'yicha TTAning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan rag'batlantiriladi.

- Xalqaro talabalar konferensiyasida eng faol ishtirok etgan talabalarga tegishli seksiyalar bo'yicha mazkur Tartibning 4.4.-bandida belgilangan nominatsiyalar g'oliblariga sertifikatlar taqdim etiladi.

- Xalqaro talabalar konferensiyasi qatnashgan barcha talabalarga ishtirokchi sertifikatlari beriladi.

VI-bob. Nizolarni ko'rib chiqish tartibi

6.1. Xalqaro talabalar konferensiyasi natijalari e'lon qilingandan so'ng 24 soat ichida tushgan yozma shikoyat va arizalar tashkiliy komissiya tomonidan O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunga muvofiq ko'rib chiqiladi.

Eslatmalar:

6.2. Agarda Xalqaro talabalar konferensiyasida ishtirok etayotgan talaba seksiya yig'ilishi davom etayotgan davrda texnik nosozliklar sababli ma'ruza taqdimoti amalga oshmasa, bu holatda shaffoflik va haqqoniylikni ta'minlash maqsadida ishtirokchi talaba xalqaro talabalar konferensiyasidan chetlashtiriladi va bu to'g'risida bayonnoma rasmiylashtiriladi.

VII-bob. Xalqaro talabalar konferensiyasini yakunlash tartibi

7.1. **Seksiyalar bo'yicha mas'ullar tomonidan** barcha seksiyalarga tegishli Xalqaro talabalar konferensiyasi natijalari to'g'risidagi hisobotlar yozma va elektron shaklda tasdiqlangan holda **Xalqaro talabalar konferensiyasi o'tkazilgan kunning ertasiga** Iqtidorli talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limiga taqdim qilinadi.

7.2. Iqtidorli talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi tomonidan Xalqaro talabalar konferensiyasi natijalari jamlanib, unga oid ma'lumotlar 5 (besh) kun muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining fan va ta'lim boshqarmasiga hisobot taqdim etiladi.

Xalqaro talabalar konferensiyasi yo'nalishlari (seksiyalar)

I. Seksiya – Ichki kasalliklarning dolzarb muammolari:

1. Ichki kasalliklar;
2. Fakultet va gospital terapiya
3. Klinik allergologiya

II. Seksiya – Terapiyada yangi yondoshuvlar:

1. Ichki kasalliklar propedevtikasi
2. Farmakologiya
3. Klinik farmakologiya
4. Ftiziatriya
5. Stimulyasion o'qitish

III. Seksiya – Xirurgik kasalliklarning zamonaviy jihatlari:

1. Umumiy jarrohlik
2. Fakultet va gospital jarrohlik
3. Transplantologiya
4. Bolalar jarrohligi
5. Anesteziologiya va reanimatsiya

IV. Seksiya - Xirurgik patologiyaning dolzarb muammolari:

1. Travmatologiya
2. Ortopediya
3. Neyrojarrohlik
4. XDJ
5. Onkologiya
6. Urologiya
7. Oftalmologiya
8. Otolaringologiya
9. Stomatologiya

V. Seksiya – Nevrologiyaning zamonaviy muammolari:

1. Nevrologiya
2. Tibbiy psixologiya
3. Psixiatriya
4. Reabilitologiya
5. Xalq tabobati
6. Jismoniy tarbiya

VI. Seksiya – Akusherlik va ginekologiyaning dolzarb masalalari:

1. Akusherlik
2. Ginekologiya

VII. Seksiya – Zamonaviy pediatriyaning yutuqlari:

1. Bolalar kasalliklari
2. Bolalar kasalliklari propedevtikasi

VIII. Seksiya – Diagnostikada innovatsion yondashuv

1. Tibbiy radiologiya
2. Klinik laborator diagnostika
3. Laboratoriya ishi

4. Gematologiya, transfuziologiya
5. Yuqumli kasalliklar
6. Dermatovenerologiya
7. Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya

IX- Seksiya – Morfologiyaning dolzarb masalalari

1. Normal anatomiya
2. Gistologiya
3. Normal fiziologiya
4. Tibbiy va biologik kimyo
- 5 Tibbiy biologiya
6. Tibbiyotda axborot texnologiyalari
7. Biofizika

X. Seksiya – Patologiyaning zamonaviy jihatlari:

1. Patologik anatomiya
2. Klinik anatomiya
3. Patologik fiziologiya
4. Sud tibbiyoti

XI. Seksiya – Ijtimoiy-gumanitar fanlar:

1. Ijtimoiy fanlar
2. Chet tillari
3. Pedagogika
4. Psixologiya
5. Jamoat salomatligi
6. Sogʻliqni saqlash menejmenti
7. Hamshiralik ishi

XII. Seksiya – Tibbiy profilaktikaning dolzarb muammolari:

1. Profilaktik tibbiyot
2. Sogʻlom turmush tarzi
3. Atrof-muhit gigiyenasi
2. Kommunal gigiena va mehnat gigiyenasi
3. Bolalar, oʻsmirlar gigiyenasi
4. Ovqatlanish gigiyenasi
5. Epidemiologiya

Talabalar ilmiy konferensiyasida talabalarni baholash mezonlari

Fan _____ Seksiya _____

Shaxsiy baxolash varaqasi № _____

| № | Ishtirokchining F.I.O. Mavzusi, OTM, fakultet va kursi (to'liq ko'rsatilishi lozim) | Taqdimot ko'rinishi | Dolzarbligi | Ma'ruza mazmuni | Ishtirokulushi | Taqdimotga qo'yiladigan talablar | Umumiy o'rtacha ball |
|----------|--|--|-------------------------------------|---|--|--|-----------------------------|
| | | Slaydlar soni taqdimotning davomiyligi va mazmuniga mos keladi, ko'rgazmali qo'llanmalar (diagrammalar, grafiklar, sxematik tasvirlar va boshqalar) ishlatiladi. | Ilmiy-tadqiqot ishining dolzarbligi | Innovatsion g'oya Taqdimot tadqiqotning asosiy bosqichlarini (muammo, maqsad, xulosalar, adabiyotlar bilan ishlash) aks ettiradi. Ish mavzusi bo'yicha to'liq, tushunarli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi Imloviy savodxonlik | Ilmiy tadqiqot ishida va amaliyoti da ishtirok etish ulushi. | Ma'ruzachi mazmunni yaxshi biladi, materialni aniq va malakali taqdim etadi. Ma'ruzachinginglovchilarning savollari va sharhlariga erkin va to'g'ri javob beradi Ma'ruzachi qoidalar doirasida aniq (7 min.) | |
| | | 15b | 10b | 25 b | 15b. | 35 b. | |
| 1. | | | | | | | |
| 2. | | | | | | | |
| 3. | | | | | | | |
| 4. | | | | | | | |
| 5. | | | | | | | |
| ... | | | | | | | |

Hakamlar hayati F.I.Sh. _____

imzo

**II Xalqaro talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasi
DASTURI**

| | | |
|--|--|--|
| 09.00 10.00 | Ochilish marosimi | |
| 09.00 09.10 | Tabrik so'zi | Shadmanov Alisher Kayumovich Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori |
| 09.10 09.20 | Tabrik so'zi | Toshkulov Abdukodir Hamidovich O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri |
| 09.20 09.30 | Tabrik so'zi | Musayev Behzod Anvarovich O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri |
| 09.30 09.40 | Tabrik so'zi | Korneliya Bekker "O'zbekistonda ilg'or tibbiy texnologiyalarni boshqarish" (GIZ) loyihasi rahbari |
| 09.40 09.50 | Tabrik so'zi | Kim Heeun Koreya sog'liqni saqlash xalqaro fondini KOFIH tashkilotining O'zbekistondagi Vakili |
| 09.50 09.55 | II Xalqaro talabalar konferensiyasini o'tkazish tartibi haqida ma'lumot berilishi | |
| 10.00 | Konferentsiya ishtirokchilari va hakamlar hay'ati a'zolarining tegishli fanlar bo'yicha seksiya majlislariga taklif qilinishi | |
| TEGISHLI MAVZULARGA OID 12-SEKSIYA BO'YICHA MAJLISLAR: | | |
| <p>I. Seksiya – Ichki kasalliklarning dolzarb muammolari; II. Seksiya – Terapiyada yangi yondoshuvlar; III. Seksiya – Xirurgik kasalliklarning zamonaviy jihatlari; IV. Seksiya - Xirurgik patologiyaning dolzarb muammolari; V. Seksiya – Nevrologiyaning zamonaviy muammolari; VI. Seksiya – Akusherlik va ginekologiyaning dolzarb masalalari; VII. Seksiya – Zamonaviy pediatriyaning yutuqlari; VIII. Seksiya – Diagnostikada innovatsion yondashuv; IX- Seksiya –Morfologiyaning dolzarb masalalari; X. Seksiya – Patologiyaning zamonaviy jihatlari; XI. Seksiya – Ijtimoiy-gumanitar fanlar; XII. Seksiya – Profilaktik tibbiyotning dolzarb muammolari;</p> | | |
| Talabalarining ilmiy ma'ruzalari tanlovi o'tkaziladi | | |
| 13:00 | Seksiya majlisi xulosasi va Natijalar e'lon qilish jarayoni | |
| Konferentsiya g'oliblari va faol ishtirokchilari tegishli diplom va sertifikatlarni <i>Conf.tma.uz</i> saytida yuklab olishi mumkin. | | |

**II Xalqaro talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasini o'tkazish bo'yicha Tashkiliy komissiya
TARKIBI**

| № | F.I.O. | Lavozimi | Tashkiliy komissiya dagi o'rni | Faoliyat turiga mas'ulligi |
|----|------------------|--|--------------------------------|---|
| 1 | A.K.Shadmanov | Rektor | Tashkiliy komissiyaning raisi | |
| 2 | F.L. Azizova | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor | Rais o'rinbosari | |
| 3 | Sh.A.Boymuradov | O'quv ishlar bo'yicha prorektor | Komissiya a'zosi | |
| 4 | T.A.Bobomuratov | Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor | Komissiya a'zosi | |
| 5 | J.J. Isroilov | Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor | Komissiya a'zosi | Xorijiy spikerlarni va hay'at a'zolari taklif qilishga mas'ul |
| 6. | O.Y.G'aipov | Reja-moliya bo'limi boshlig'i | Komissiya a'zosi | Bannerlar, diplom va sertifikatlar chop etish; esdalik sovg'alar, zal bezatish uchun gullarni xarid qilish, bilan bog'liq bo'lgan barcha sarf-xarajatlarga mas'ul |
| 7 | J.A.Umarov | TTA "O'zbekiston yoshlar ittifoqi" boshlang'ich tashkiloti vakili | Komissiya a'zosi | Mas'ul komissiyaga tashkiliy ko'mak ko'rsatish bo'yicha jalb qilinayotgan TTA talabalari ish faoliyatini tashkil etishga mas'ul |
| 8 | B.T. Xalmatova | 1 - son Davolash fakulteti dekani | Komissiya a'zosi | |
| 9 | A.A. Irmazarov | 2 - son Davolash fakulteti dekani | Komissiya a'zosi | |
| 10 | A.A. Hamraev | Tibbiy pedagogika fakulteti | Komissiya a'zosi | |
| 11 | F.I. Salomova | Tibbiy profilaktika fakulteti dekani | Komissiya a'zosi | |
| 12 | S.I. Aliev | Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muxandisligi fakulteti dekani | Komissiya a'zosi | |
| 13 | D.X. Tursunov | Xalqaro fakulteti dekani | Komissiya a'zosi | |
| 14 | M.M. Jafarov | Xalqaro bo'limi boshlig'i | Komissiya a'zosi | Xorijiy spikerlarni va hay'at a'zolari taklif qilishga mas'ul |
| 16 | F.B.Abdumalikova | Iqtidorli talabalar ilmiy tadqiqot faoliyatini | Mas'ul kotib | II Xalqaro talabalar konferensiyasini |

| | | | | |
|----|--------------------|--|------------------|---|
| | | tashkil etish bo'limi boshlig'i | | tashkillashtirishga, buyruq va nizom loyahasini tayyorlashga, konferentsiyada iqtidorli talabalar ishtirokini ta'minlashga va xisobotlar topshirilishiga mas'ul |
| 17 | A.K. Musaxonov | Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i | Komissiya a'zosi | Konferensiyani o'tkazish jarayonida dasturiy ta'minot to'liq ta'minlanishiga mas'ul |
| 18 | N. M. Nurillayeva | 1-son ichki kasalliklar kafedrasini mudiri | Komissiya a'zosi | I sektsiya yig'ilishiga javobgar, hakamlar hay'ati raisi |
| 19 | X.T. Miraxmedova | 1-son ichki kasalliklari propedevtikasi, nefrologiya va gemodializ kafedrasini mudiri. | Komissiya a'zosi | II sektsiya yig'ilishiga javobgar, hakamlar hay'ati raisi |
| 20 | M.M.Akbarov | Xirurgiya va transplantologiya kafedrasini mudiri | Komissiya a'zosi | III sektsiya yig'ilishiga javobgar, hakamlar hay'ati raisi |
| 21 | I.E. Xujanazarov | Travmatologiya, ortopediya va neyroxirurgiya kafedrasini mudiri | Komissiya a'zosi | IV sektsiya yig'ilishiga javobgar, hakamlar hay'ati raisi |
| 22 | A.A.Usmonxujaye va | Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya kafedrasini mudiri | Komissiya a'zosi | V sektsiya yig'ilishiga javobgar, hakamlar hay'ati raisi |
| 23 | F.I.Shukurov | 1-son akusherlik va ginekologiya kafedrasini mudiri | Komissiya a'zosi | VI sektsiya yig'ilishiga javobgar, hakamlar hay'ati raisi |
| 24 | I.A. Karimjonov | 2-son bolalar kasalliklari kafedrasini mudiri | Komissiya a'zosi | VII sektsiya yig'ilishiga javobgar, hakamlar hay'ati raisi |
| 25 | M.X. Ismailova | Tibbiy radiologiya kafedrasini mudiri | Komissiya a'zosi | VIII sektsiya yig'ilishiga javobgar, hakamlar hay'ati raisi |
| 26 | M.I..Bazarbayev | Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika kafedrasini mudiri | Komissiya a'zosi | IX sektsiya yig'ilishiga javobgar, hakamlar hay'ati raisi |
| 27 | X.Z. Tursunov | Patologik anatomiya kafedrasini mudiri | Komissiya a'zosi | X sektsiya yig'ilishiga javobgar, hakamlar hay'ati raisi |
| 28 | R.N. Melibaeva | Pedagogika va psixologiya kafedrasini mudiri | Komissiya a'zosi | XI sektsiya yig'ilishiga javobgar, hakamlar hay'ati raisi |
| 29 | G.T. Iskandarova | Kommunal gigiena va mehnat salomatligi kafedrasini mudiri | Komissiya a'zosi | XII sektsiya yig'ilishiga javobgar, hakamlar hay'ati raisi |
| 30 | N.T.Yodgorova | Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya kafedrasini dotsenti | Komissiya a'zosi | Xalqaro talabalar konferensiyasining Kafedralar aro saralash bosqichi o'tkazishga mas'ul |

| | | | | |
|----|----------------|--|---------------------|--|
| 31 | N.U. Ne'matova | Epidemiologiya kafedrası katta o'qituvchi | Komissiya a'zosi | Rasmiy taklifnoma yo'llanma xatlarni tayyorlash. konferentsiya dasturini tayyorlash |
| 32 | X.B. Nurbayeva | Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi uslubchisi | Kotib | konferensiyaning rasmiy marosimi o'tkaziladigan TTA litsey zalini bezatishga mas'ul |

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektorining
2022 yil "10" 10 dagi
323-sonli buyrug'iga 4-ilova

II Xalqaro talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasi hakamlar hay'at a'zolari

TARKIBI

| № | F.I.O. | Lavozimi |
|----|-----------------------|---|
| 1 | N. B.Nuritdinova | 1-son Ichki kasalliklar kafedrasida dotsenti (1-sektsiya moderatori) |
| 2 | M.T.Zubaydullaeva | 1-son Ichki kasalliklar kafedrasida dotsenti (1-sektsiya koordinatori) |
| 3 | S.Sh.Egamova | 1-son Ichki kasalliklari propedevtikasi, nefrologiya va gemodializ kafedrasida assistenti (2-sektsiya moderatori) |
| 4 | R.Y.Xayaliev | Xirurgiya va transplantologiya kafedrasida dotsenti (3-sektsiya moderatori) |
| 5 | B.Sh.Ubaydullaev | Travmatologiya, ortopediya va neyroxirurgiya kafedrasida assistenti (4-sektsiya moderatori) |
| 6 | B.A.Boboev | Travmatologiya, ortopediya va neyroxirurgiya kafedrasida assistenti (4-sektsiya koordinatori) |
| 7 | G.N.Sobirova | Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya kafedrasida dotsenti (5-sektsiya moderatori) |
| 8 | O.N. Visogorseva | Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya kafedrasida dotsenti (5-sektsiya moderatori) |
| 9 | R.K.Userbayeva | Psixiatriya va narkologiya kafedrasida assistenti (5-sektsiya koordinatori) |
| 10 | M.D.Abdurazoqova | 1-son Akusherlik va ginekologiya kafedrasida assistenti (6-sektsiya moderatori) |
| 11 | D.M.Mamajonova | 1-son Akusherlik va ginekologiya kafedrasida assistenti (6-sektsiya koordinatori) |
| 12 | Iskanova G. X. | 2-son bolalar kasalliklari kafedrasida dotsenti (7-sektsiya moderatori) |
| 13 | D.R. Dinmuxammadiyeva | 2-son Bolalar kasalliklari kafedrasida (7-sektsiya koordinatori) |
| 14 | D.D. Zulfikariyev | Tibbiy radiologiya kafedrasida assistenti (8-sektsiya moderatori) |
| 15 | A.Z. Sobirjonov | Tibbiyotda axborot texnologiyalari va biofizika kafedrasida katta o'qituvchisi (9-sektsiya moderatori) |
| 16 | U.Q. Safarov | TMA Axborot xavfsizligi boshqarmasi boshlig'i (9-sektsiya koordinatori) |
| 17 | Sh.R. Omonov | Patologik anatomiya kafedrasida assistenti (10-sektsiya moderatori) |
| 18 | N. Ganieva | Sud tibbiyoti kafedrasida (10-sektsiya koordinatori) |
| 19 | N.A.Asqarova | Pedagogika va psixologiya kafedrasida assistenti (11-sektsiya moderatori) |
| 20 | M.O. Komilova | Pedagogika va psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi (11-sektsiya koordinatori) |
| 21 | M.N. Tashpulatova | Kommunal va mehnat gigiyena kafedrasida assistenti (12-sektsiya moderatori) |

**II Xalqaro talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasini o'tkazish bo'yicha mas'ul
komissiyaga tashkiliy ko'mak ko'rsatish bo'yicha jalb qilinayotgan TTA
talabalari
RO'YXATI**

| № | F.I.O. | Ta'lim yo'nalishi | Ta'lim bosqich | Tashkiliy ko'mak turi |
|----------|------------------------|---|-----------------------|--|
| 1 | Xabibova Feruza | Davolash-1 fakulteti talabasi | 5 | Boshlovchi |
| 2 | Kamilov Jasurbek | Davolash-1 fakulteti talabasi | 3 | Boshlovchi |
| 3 | Axmedova Dilaruz | Kardiologiya mutaxassisligi magistr talabasi | 3 | Konferensiya materiallarini xorijiy tillarga tarjima ko'magi |
| 4 | Ismoilov Ulugbek | Kardiologiya mutaxassisligi magistr talabasi | 2 | Texnik ko'mak |
| 5 | Ro'ziboev Ulugbek | Kardiologiya mutaxassisligi magistr talabasi | 2 | Texnik ko'mak |
| 6 | Xolmurodov Shaxzod | Kardiologiya mutaxassisligi magistr talabasi | 1 | Texnik ko'mak |
| 7 | Nurullayev Baxtiyor | 2-son Davolash fakulteti talabasi | 3 | Texnik ko'mak |
| 8 | Shamsiev Shaxzod | 2-son Davolash fakulteti talabasi | 6 | Texnik ko'mak |
| 9 | Abduvaliyeva Maftuna | 1-son Davolash fakulteti talabasi | 3 | Texnik ko'mak |
| 10 | Dadayeva Nigina | 2-son Davolash fakulteti talabasi | 5 | Texnik ko'mak |
| 11 | Hasanova Mexrangiz | 1-son Davolash fakulteti talabasi | 4 | Texnik ko'mak |
| 12 | Abdualiyeva Maftuna | 1-son Davolash fakulteti talabasi | 3 | Texnik ko'mak |
| 13 | Valijanov Azizbek | 2-son Davolash fakulteti talabasi | 5 | Texnik ko'mak |
| 14 | Valiulin Rashid | 1-son Davolash fakulteti talabasi | 4 | Texnik ko'mak 1-sektsiya |
| 15 | Tursunboyeva Diyora | 1-son Davolash fakulteti talabasi | 6 | Texnik ko'mak 2-sektsiya |
| 16 | Isabekov Muhammadbabur | 1-son Davolash fakulteti talabasi | 6 | Texnik ko'mak 3-sektsiya |
| 17 | Muratov Azizbek | 2-son Davolash fakulteti talabasi | 6 | Texnik ko'mak 4-sektsiya |
| 18 | Sobirov Akbar | 1-son Davolash fakulteti talabasi | 6 | Texnik ko'mak 5-sektsiya |
| 19 | Mamirova Moxinur | Akusherlik va ginekologiya mutaxassisligi magistr | 1 | Texnik ko'mak 6-sektsiya |

| | | talabasi | | |
|----|---------------------|---|---|---------------------------|
| 20 | Naimov Umid | 1-son Davolash fakulteti talabasi | 3 | Texnik ko'mak 7-sektsiya |
| 21 | G'ulomov Shoxruh | 1-son Davolash fakulteti talabasi | 6 | Texnik ko'mak 8-sektsiya |
| 22 | Bahromov Abdurahmon | 2-son Davolash fakulteti talabasi | 6 | Texnik ko'mak 9-sektsiya |
| 23 | Raimkulova Durdona | Tibbiy pedagogika va xalq tabobati fakulteti talabasi | 6 | Texnik ko'mak 10-sektsiya |
| 24 | O'ktamova Dinara | Tibbiy pedagogika va xalq tabobati fakulteti talabasi | 5 | Texnik ko'mak 11-sektsiya |
| 25 | Pulatov Umid | Tibbiy profilaktika fakulteti talabasi | 5 | Texnik ko'mak 12-sektsiya |